



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

Cheklovlar:

Axborot yangiligi cheklangan (model so'nggi ma'lumotlarni doimiy yangilab bormaydi);
Ba'zida noto'g'ri yoki noaniq javoblar berishi mumkin;

Etik va huquqiy masalalarda noto'g'ri talqinlar keltirishi ehtimoli mavjud.

ChatGPT modeli sun'iy intellektning sohalarga kirib kelishida muhim o'rin tutmoqda. Uning turli sohalarda qo'llanilishi orqali ish samaradorligini oshirish, vaqtni tejash va inson resurslaridan samarali foydalanish mumkin. Biroq ushbu modeldan foydalanishda ehtiyotkorlik va nazorat muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OpenAI. (2023). <https://openai.com/chatgpt>
2. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2021). *Speech and Language Processing* (3rd ed.). Stanford University.
3. Russell, S., & Norvig, P. (2020). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson.
4. Bender, E. M., & Friedman, B. (2018). Data Statements for Natural Language Processing. *ACM Transactions on NLP*.
5. Karimov, B. A. (2022). "Sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotdagi o'rni." *O'zbekiston ilmiy jurnali*.
6. Nazarov, I. I. (2023). "ChatGPT imkoniyatlari va cheklovlari." *Axborot texnologiyalari va jamiyat*, №4.
7. Shavkat, A. (2025). Jo'jalar eymeriozi: etiologiyasi, klinik belgilar va oldini olish choralar.
8. Теплович Е.А., Шавкат А. и Караматдинович Б.К. (2025). Коракалпог'истон республикаси хо'джайли туманида ко'йларнинг ичак сестодозларининг таркалиши ва профилактикаси. *Обеспечение интеграции науки и образования на основе инновационных технологий*. , 2 (2), 89-96.
9. ФАНЛАР, Ў. Р., & БЎЛИМИ, А. М. (2023). Хоразм маъмун академияси ахборотномаси. *Вестник Хорезмской академии Маъмуна*, 4(2).
10. Xolmuratov, I. (2024). Janubiy Qoraqalpog'istondagi birikmali oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlari. *IMRAS*, 7(3), 140-144.
11. Xolmuratov, I., Eshanova, T., & Xo'jamuratova, A. (2024, November). TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM OLISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14235516>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 415-418).
12. Xolmuratov, I. (2023). QORAKO'LCHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA JUN MAHSULOTLARINING MUHIMLIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR. *Science and innovation*, 2(Special Issue 8), 371-374.
13. Холмуратов, И. (2021). Этимологический анализ некоторых ойконимов Южного Каракалпакстана. *Электронный инновационный вестник*, (2), 23-24.

O'ZBEKISTONNING AGRAR SEKTORIDA EKSPORT SALOHİYATI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Bayjanov S.Q.

Qaraqalpaq Mamlakatlik universiteti

O'zbekiston uchun oziq-ovqat xavfsizligi birinchi darajali ahamiyatga ega, chunki u mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, aholining yashash darajasi va farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2023 yilda iqtisodiyotda band bo'lgan 14 million fuqaroning 24 foizi (ya'ni 3,4 million kishi) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohalorida ishlagan. Qishloq xo'jaligining mamlakat yalpi

ichki mahsulotidagi ulushi 19,2 foizni tashkil etadi. Bu soha nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, balki aholini bandlik bilan ta'minlash va eksport orqali valyuta tushumlarini oshirishda ham muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, klaster va kooperatsiya tizimlarini joriy etish, zamonaviy agrotexnologiyalarni keng qo'llash, shuningdek, tomorqa xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash orqali mahsulot hajmi va sifati oshdi. Bu chora-tadbirlar aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, importni qisqartirish va milliy oziq-ovqat tizimini mustahkamlashga qaratilgan.

2024 yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohalarida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar hajmi 36,9 milliard dollarni tashkil etdi. Bu 2023 yilga nisbatan 3,1 foizga ko'p. O'sish, avvalo, sohani raqamlashtirish, klaster tizimini keng joriy etish va eksportbop mahsulot etishtirishga qaratilgan islohotlar natijasidir.

2024 yilda oziq-ovqat tovarlari va tirik mol eksport hajmi 2,2 milliard dollarni tashkil etdi, bu mamlakat umumiy eksport hajmining 8,1 foiziga teng. O'tgan yili O'zbekiston 2036,2 ming tonna mevalar va sabzavotlar eksport qildi, bu 2023 yilga nisbatan 15,8 foizga ko'p. Mevali-sabzavot mahsulotlari eksportining umumiy qiymati 1549,5 million dollarni tashkil qildi – bu o'tgan yilga nisbatan 31,2 foizga ko'p. Bunday o'sish sur'ati mamlakat qishloq xo'jaligi sektorida ishlab chiqarish miqyosi kengayib, eksport salohiyati oshib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ushbu mahsulotlar mamlakat umumiy eksport hajmining 5,8 foizini tashkil etdi.

Mevalar va sabzavotlar eksportidagi katta o'sish O'zbekistonning xalqaro bozorlardagi mavqeini mustahkamlayotganini va milliy iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi.

2025 yilda qabul qilingan «Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida»gi Qonun mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy bazani rivojlantirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Qonun oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi ustidan nazoratni kuchaytirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash va agrooziq-ovqat sektorining milliy iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgan qarorlar, mamlakat oziq-ovqat sektoridagi xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvi, ishlab chiqarish va nazoratning xalqaro standartlarga muvofiqligini oshirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorligi mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va barqaror rivojlanishga qaratilgan strategik sa'y-harakatlarining muhim qismi hisoblanadi. Bu hamkorlik rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va uni O'zbekistonning milliy siyosati hamda amaliyotiga moslashtirish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish va jahon iqtisodiy o'zgarishlariga tayyorgarlik ko'rish uchun bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarni davom ettirish va kuchaytirish zarur. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, mahsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va agrar sektorni rivojlantirish bilan birga, xalqaro hamkorlikni ham mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Oldimizda hali ham echimini topmagan ko'plab vazifalar turibdi. Biroq, agar sa'y-harakatlarimizni birlashtirsak va qat'iy siyosiy iroda hamda shijoat namoyon etsak, bunga rag'batlantiruvchi siyosat choralari, etarli miqdordagi investitsiyalar va yangicha biznes modellari bilan yordam bersak, bizning mintaqamiz zarur o'zgarishlarni amalga oshirishda etakchiga aylanishi, o'z namunasi bilan butun dunyoga ilhom bag'ishlashi mumkin.

Qabul qilingan «Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida»gi Qonun agrosanoat majmuasining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim vosita bo'lib, O'zbekiston aholisi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" (yangi tahriri)gi O'RQ-404-son Qonuni. <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmoniga 1-ILOVA, 57,67,68 masadlar. <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti 21-sonli BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-noyabrdagi 191-son buyrug'i. Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 27-dekabrda 3593 son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. . <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti 5-sonli BHMS "Asosiy vositalar". Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024- yil 14 iyundagi 133-son buyrug'i. Adliya vazirligi tomonidan 2024 yil 9 avgutda 3546-son bilan ro'yxatga olingan. . <https://lex.uz>
5. Садриддин, П., Ахтам, Р., Махбуба, А., Шерзод, К., Гульнора, Р., Ориф, Н., ... и Дилшод, Д. (2025). Наночеситель из двухлигандных липосом с цисплатином и siRNA против PD-L1 при плоскоклеточной карциноме головы и шеи: обзор. Журнал наноструктур , 15 (1), 292-300.
6. Shavkat, A. (2025). Jo'jalar eymeriozi: etiologiyasi, klinik belgilar va oldini olish choralar.
7. Тлепович, Есимбетов Адильбай, Авезимбетов Шавкат и Бауаддинов Камаладдин Карамаддинович. «Qoraqalpog'iston respublikasi xo'jayli tumanida qo'ylarning ichak sestodozlarining tarqalishi va profilaktikasi." *Обеспечение интеграции науки и образования на основе инновационных технологий*. 2.2 (2025): 89-96.
8. ФАНЛАР, Ў. Р., & БЎЛИМИ, А. М. (2023). Хоразм маъмун академияси ахборотномаси. *Вестник Хорезмской академии Маъмуна*, 4(2).
9. Xolmuratov, I. (2024). Janubiy Qoraqalpog'istondagi birikmali oykonimlarning o'ziga xos xususiyatlari. *IMRAS*, 7(3), 140-144.
10. Xolmuratov, I., Eshanova, T., & Xo'jamuratova, A. (2024, November). TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM OLISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14235516>. In International scientific and practical conference (Vol. 1, No. 1, pp. 415-418).
11. Xolmuratov, I. (2023). QORAKO'LCHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA JUN MAHSULOTLARINING MUHIMLIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR. *Science and innovation*, 2(Special Issue 8), 371-374.
12. Холмуратов, И. (2021). Этимологический анализ некоторых ойконимов Южного Каракалпакстана. *Электронный инновационный вестник*, (2), 23-24.

BALIQCILIK XO'JALIKLARINI REJALASHTIRISHNING AHAMIYATI VA BOSQICHLARI

Dosmuratova Sh.K., Charshanova G.K., Bazarbaev B.T.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. Baliqchilik tarmog'i oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda va aholiga oqsilga boy, sifatli baliq mahsulotlari yetkazib berishda muhim rol o'ynaydi. Baliqchilik tarmog'ini rivojlantirishga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor berilmoqda. Buni quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishida ham ko'rishimiz mumkin: O'zbekiston Respublikasi